
BOZORDAGI NARX-NAVO HOKIM NAZORATIDA

Qo'shtepa tumanida karantin davrida oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxining sun'iy ravishda oshirilishiga yo'l qo'ymaslik yuzasidan zarur chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Tuman hokimi I. Novikov va sektor rahbarlari, soliq idorasi mutasaddilari oziq-ovqat mahsulotlari narxlarini doimiy ravishda nazorat qilib bormoqda.



Tuman Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik markazi xodimlari tomonidan bozor hududi va darvozasida muntazam dezinfeksiya ishlari olib borilmoqda. Bozor hududiga kirib kelayotgan fuqarolarning tana harorati pirometrlar yordamida o'lchanmoqda.

Narx-navo barqarorligini ta'minlash hamda aholiga qulaylik yaratish maqsadida tuman dehqon bozori ma'muriyati tomonidan "Ko'chma bozor" faoliyati yo'lga qo'yilgan. Qolaversa, mahalla fuqarolar yig'inlarida arzonlashtirilgan oziq-ovqat mahsulotlari sotishga mo'ljallangan savdo do'konlari tashkil etildi.



Karantin davrida aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash va narxni barqaror ushlab turish tuman hokimligining doimiy nazoratiga olingan.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati

2020-04-16 14:59:00